

TANK QUROLLARINI UZOQ MASOFALARGA VA KO'RINISHI CHEKLANGAN SHAROITDA QO'LLASH TAJRIBASI

ABDULLAEV Umarbek Ibragimovich

*podpolkovnik, Chirchiq OTQMBYU Qurollanish
va otish kafedrası boshlig'ining o'rinbosari- sikl boshlig'i.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif tank qurollaridan uzoq masofalarga va ko'rinishi cheklangan sharoitda otishning o'ziga xos tartib qoidalari hamda zamonaviy qurolli mojaralarda qo'llanilgan tajribalari to'g'risida ma'lumotlar bergan.

Kalit so'zlar: Tank, yopiq otish pozitsiyasi, qurolli mojaro, ko'rinishi cheklangan sharoit, artilleriya, uzoq masofaga otish, azimut ko'rsatkichi, smartfon, dron.

Аннотация. В данной статье автор приводит информацию о конкретных правилах порядка ведения огня из танкового оружия на дальние дистанции и в условиях ограниченной видимости, а также об экспериментах, применяемых в современных вооруженных конфликтах.

Ключевые слова: Танк, закрытая огневая позиция, вооруженный конфликт, условия ограниченной видимости, артиллерия, стрельба на дальние дистанции, азимутальный указатель, смартфон, дрон.

Abstract. In this article, the author provides information about specific rules for firing tank weapons at long distances and in conditions of limited visibility, as well as about experiments used in modern armed conflicts.

Key words: tank, closed firing position, armed conflict, limited visibility conditions, artillery, long range shooting, azimuth indicator, smartphone, drone.

Jahonda yuz berayotgan harbiy siyosiy vaziyatning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat yetakchi davlatlar o'zlarining armiyalarini jangovar imkoniyatlarini oshirishda asosan ikkita, birinchisi zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnikani sotib olish, ikkinchisi mavjud harbiy texnikalarni modernizatsiya qilish hamda ushbu harbiy texnikani mohirona boshqaradigan ekipajlar bilan ularning qudratini oshirish yo'lidan bormoqda. Shu bois o'zining Qurolli Kuchlarini zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnikalar bilan butlash orqali jangovar imkoniyatlarini oshirish hamda armiyani turli xil vaziyatlar va sharoitlarda jang qilish samaradorligini yaxshilashga alohida e'tibor qaratmoqda. Bunga misol sifatida Suriyada (2015-2021-yillar.) va Tog'li-Qorabog' (2020-2021-yillar.) bo'lib o'tgan, shuningdek, Rossiya va Ukrainada (2022-yildan-hozirgi vaqtgacha) davom etayotgan qurolli to'qnashuvlarni keltirish mumkin. Bunday sharoitlarda bo'linmalarning jangovar tayyorgarlik darajasi ustunligi g'alabaga erishishning asosiy omillaridan bo'lib qolmoqda [5].

O'tgan asr mobaynida tanklar quruqlikdagi qo'shnlarning asosiy zarba beruvchi kuchi hisoblanib, u yuqori harakatlanuvchanligi va o'tuvchanligi, barcha zamonaviy zarba beruvchi vositalardan himoyalanganligi va qudratli qurollarini qo'llashi bilan har xil turdagi otish vazifalarini bajarib kelgan.

Hozirgi davr zamonaviy qurolli mojarolarida tanklardan umumqo'shin janglaridagi kabi klassik usulda foydalanishdan voz kechilmoqda. Bunga misol sifatida Rossiya-Ukraina qurolli mojarolarida mojaroning dastlabki bosqichida har ikkala tomon tanklar bo'yicha katta yo'qotishlarga duch kelgani, shu sababli mudofaani yorib kirish uchun to'g'ridan to'g'ri to'qnashuvlarga tanklarni qo'llash kuzatilmayotgani sababli, buning o'rniga tanklardan ko'proq uzoq masofalardan otish bilan madad berilayotganini ko'rish mumkin.

Rossiya qo'shinlari 2022-yil kuzida Xerson yo'nalishida mudofaaga o'tganda T-90 tanklari bilan qurollangan rotasi yordamida uzoq masofaga ko'rinishi cheklangan sharoitda Ukraina Qurolli Kuchlari mudofaasining 8 kilometr uzoqlikdagi old chizig'iga bir nechta oskolka-fugasli snaryadi bilan zarba berib dushmanni chekinishiga majbur qilgan (1-rasm).




Yana 1-rasm. Yopiq otish pozitsiyasidan o't ochayotgan T-90 tanki yasi olib borgan jangovar harakatlarda, dala komandirlari tomonidan ishlab chiqilgan taktikaga asosan tanklar vzvod, rota tarkibida dushman old chizig'idan 9-10 kilometr gacha bo'lgan uzoqlikda pana joylarga joylashtirilib, artilleriya o'rniga dushmanni bostirish uchun qo'llanilgan. Harbiy ekspertlarning fikriga ko'ra tank ekipajlari dron va oddiy planshetlardan foydalangan, ya'ni dron razvedka va korrektirovkachi vazifasini bajargan bo'lsa, planshet maxsus kiritilgan dastur asosida hisob-kitoblarni amalga oshirishda qo'l kelgan.

Ukraina Qurolli Kuchlari tomonidan qo'llanilgan yana bir yangilik tanklarni aloxida qo'llagan tarzda razvedka zarba amaliyoti (2-rasm).

Razvedka zarba kompleksining tarkibi: tank ekipaji bilan + radiostansiya;

korrektirovshik + planshet + radiostansiya; kvadratokopter boshqaruvchisi (pilot) bilan + radiostansiya.



Qoidaga ko'ra, tank qurollaridan uzoq masofalarga va ko'rinishi cheklangan sharoitlarda otish yopiq otish pozitsiyalaridan amalga oshiriladi.

Yopiq otish pozitsiyasi deb, dushmanning yerdagi kuzatuv punktlaridan otuvchi tanklar, shuningdek ularning otishida paydo bo'ladigan alanga, chang va tutunlari ko'rinmaydigan pozitsiyaga aytiladi [1].

Tanklardan otishning klassifikatsiyasi

t/r	Klassifikatsiya belgisi	Otish turi va usullari
1	Qurolni nishonga yo'naltirish bo'yicha	to'g'ri mo'ljallab otish; to'g'ri bo'lmagan mo'ljallab otish (alohida mo'ljallash bilan).
2	Otish vazifasini echish uchun jalb etilgan tanklar soni bo'yicha	yakka tankdan otish; bo'linma tarkibida otish.
3	Otish uzoqligi bo'yicha	yaqin masofalarga otish (2500 m gacha); uzoq masofalarga otish (2500 m dan yuqori).
4	Otuvchi tankning harakatlanish darajasi bo'yicha	harakatda otish; qisqa to'xtab otish; joyidan otish.

Tank bo'linmalari yopiq otish pozitsiyalaridan qoida bo'yicha yerdagi kuzatuv punktlaridan ko'rinmaydigan nishonlarga otishni amalga oshiradi. Otish uchun dastlabki ma'lumotlarni **artilleriya shtab guruhi** tayyorlaydi.

Yopiq otish pozitsiyasidan otish uchun quyidagilar amalga oshirilishi kerak:
otish pozitsiyasini tanlash, tayyorlash va egallash:
otishga tayyorgarlik ko‘rish;
otishni amalga oshirish [2].

Otish pozitsiyasini tanlash, tayyorlash va egallash

Yopiq otish pozitsiyasidan otish uchun ajratilgan tank bo‘linmalari otish pozitsiyalarini olib borilayotgan jangovar harakatlar yo‘nalishida artilleriya otish pozitsiyalari hududida vzvod bo‘yicha egallaydi.

Yopiq otish pozitsiyasi o‘rmonzor, butazorlar, tepaliklarning ort tomoni va boshqa pana joylarda tanlanadi;

otish pozitsiyasi yaqinida orientir va ko‘zga yaqqol tashlanuvchi mahalliy narsalar bo‘lmisligi kerak. Otish pozitsiyasi oldida dushmanning yerdagi kuzatuvidan yashiruvchi pana joy bo‘lishi kerak.

Yopiq otish pozitsiyasi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

jangovar harakatlar olib borilayotgan yo‘nalishga yaqin bo‘lishi, kerakli pana joyga ega bo‘lishi, yetarli darajada qattiq va changsiz yerga ega bo‘lishi;

dushmanning havodagi kuchlaridan saqlanish uchun ishonchli niqoblanishga ega bo‘lishi;

eng kam masofaga otishni amalga oshirish ta‘minlanishi, asosiy yo‘nalishdan chap va o‘ngga 6-00 otishni amalga oshirish imkoni bo‘lishi;

vzvod tanklari asosiy yo‘nalishga to‘g‘ri burchak ostida joylashtirilishi va bunda oraliq masofalar bir xil bo‘lishi ta‘minlanishi kerak, shuningdek barcha tanklar asosiy tank lyukidan chiqib kuzatilganda ko‘rinishi;

o‘zini himoya qilish uchun to‘g‘ri otishni amalga oshirishni ta‘minlanishi;

otish pozitsiyasida tanklar oralig‘i (interval) 10-30 m bo‘lishi [1].

Asosiy tank vzvod komandirining tanki hisoblanadi va unga nisbatan dastlabki o‘rnatmalar va koordinatalar olinadi. Asosiy tank pushkasi mexanizmlari va stvol kanalining yemirilishi eng kam bo‘lishi kerak.

Tanklarning yashirinishi uchun pana joyning chuqurligi deb – tank balandligidan dushmanning yerdagi kuzatuv punktidan pana joy balandligidan o‘tuvchi ko‘rish chizig‘igacha bo‘lgan masofaga aytiladi.

Dushmanning kuzatuv punktidan tanklarning otishi ko‘zga tashlanmasligi uchun pana joylarning chuqurligi 12 metr, shuningdek tunda otishda esa 18 metrdan kam bo‘lmisligi kerak.

Otish pozitsiyasida tanklarning oraliq masofasi 10-30 metr bo‘lishi mumkin. asosiy tankka nisbatan yon bosish (*ycmyn*) esa oraliq masofaning $\frac{1}{2}$ qismidan oshmasligi kerak.

Otish pozitsiyasini egallash oldindan tayyorgarlik ko‘rilgandan keyin yoki (bevosita) to‘g‘ridan-to‘g‘ri egallanishi mumkin.

Vzvod komandiriga otish pozitsiyasini egallash uchun vazifa qo'yilganda quyidagilar ko'rsatiladi:

dushman va o'z qo'shinlarining holati to'g'risida ma'lumot;

vzvodning vazifasi;

yopiq otish pozitsiyasining joyi, asosiy yo'nalishning direksion burchagi;

otish pozitsiyasi koordinatasi;

vzvod (batalon) komandirining o'rni;

vzvodning otish pozitsiyasiga harakatlanish marshruti;

otishga tayyor bo'lish vaqti;

o'q-dorilarning ta'minlanishi va sarf qilinish tartibi;

qayerdan va qaysi vaqtga o'q-dorilarni tashuvchilarning ajratilishi;

otish pozitsiyasini jihozlash bo'yicha tadbirlar;

artilleriya shtabi guruhi, tanklar o'rtasida va otish pozitsiyasi bilan aloqa o'rnatish tartibi;

yopiq otish pozitsiyasidan otish vazifalarini bajarib bo'lgandan keyingi harakatlanish tartibi.

Otishga tayyorgarlik ko'rish

Tanklar otish pozitsiyasiga o'rnatilgandan keyin vzvod shaxsiy tarkibi darhol otishga tayyorgarlik ko'radi, bunda:

tanklar jangovar holatga keltiriladi, yon sath o'lchagich rostlanadi;

asosiy yo'nalish bo'yicha parallel veer tanlanadi (tanklarning asosiy burchak o'lchovlari aniqlanadi);

eng kam sath o'lchanadi (aniqlanadi);

barcha tanklardan nazorat nuqtasiga mo'ljallashni belgilash amalga oshiriladi;

artilleriya shtabi guruhi, otish pozitsiyasi bilan aloqa o'rnatiladi;

o'q-dorilar otishga tayyorlanadi va zaryad harorati o'lchanadi [4].

Otishni amalga oshirish

Otishni amalga oshirish uchun otish pozitsiyasiga komanda radio orqali guruh bo'yicha beriladi. Bu komandani vzvod va tank komandirlari qabul qiladi [1].

“O't-Och” komandasidan tashqari barcha komandani vzvod komandiri takrorlaydi va qachonki to'g'ri ma'lumot (azimut ko'rsatkichi, yon sath ko'rsatkich qiymatlari) olinganda “Ha” deb tasdiqlaydi. Komandani noto'g'ri takrorlaganda “Yo'q” deb va takror bajarishiga komanda beradi.

Barcha komandalarni vzvod komandiri va tank komandirlari otish blankasiga yozib boradilar (artilleriya mutaxassisi bergan qiymatlarga mos keluvchi kattaliklarni 125,115 mm tank pushkalari uchun mo'ljallangan otish jadvallaridan oladilar).

Tank komandiri otishga tayyorgarligi to'g'risida vzvod komandiriga qizil bayroqni ko'tarish bilan bildiruv beradi.

XULOSA

Birinchidan – hozirgi vaqtda dushman mudofaasini yorib kirish uchun tanklar deyarli qo'llanilmayapti, ko'p holatlarda o't ochib madad berish maqsadida, xususan uzoq masofalardan o't ochishga jalb qilinmoqda.

Ikkinchidan – uzoq masofalarga va ko'rinishi cheklangan sharoitda otishning aniqligini oshirish uchun dron va smartfon (planshet)lardan samarali foydalanilmoqda.

Uchinchidan – ilgari uzoq masofalarga va ko'rinishi cheklangan sharoitda otishda tank pushkalarini yo'naltirish uchun artilleriyachilarning bussol qurilmasi va tegishli hisob-kitoblar zarur bo'lgan bo'lsa, hozirda smartfon ilovasidagi maxsus kalkulyator va oflayn xaritadan foydalanilmoqda.

To'rtinchidan - tanklarni uzoq masofalarga va ko'rinishi cheklangan sharoitda otib vazifalarni bajarishga jalb qilish iqtisodiy jihatdan qimmatga tushadi (tank pushkasi stvolining yashovchanlik resursi (OF-300) ko'p emas va snaryadlarni ishlab chiqarish tan narxining qiymati yuqori).

Beshinchidan – tankchi bo'linmalari juda zarur vaziyatlarda uzoq masofalarga va ko'rinishi cheklangan sharoitda o't otish vazifalarini bajarishga jalb qilinishi mumkin, lekin ular bunga tayyorgarlik ko'rgan bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tanklardan yopiq otish pozitsiyalaridan uzoq masofalarga otish (yo'riqnoma). /- Ch.: Chirchiq OTQMBY.-2023.
2. Mahmudov B., Yusupov B., Niyozov S., Abdullayev U., Davletov B.X. Tankdan otish qoidalari. (O'quv qo'llanma). /-Ch.: Chirchiq OTQMBY.-2022.
3. Davletov B.X. Tank T-72B qurol-aslahalarini jangovar qo'llashga tayyorlash (O'quv qo'llanma). / - Ch.: Chirchiq OTQMBY. - 2020.
4. Руководство по действиям экипажа при вооружении Т-72. / - М.: - 1990.
5. Internet saytlari "Ukraina-Rossiya" dagi harbiy operatsiyalar tahlili.